



2023

# DEVELOPMENT AND INNOVATION

## SCIENTIFIC ONLINE JOURNAL

[https://sites.google.com/view/imxu/  
peestp:1070589](https://sites.google.com/view/imxu/peestp:1070589)

### TARIX FANINI O'QITISHNDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA INNOVATSION USULLAR

**Muhiddinova Nasibaxon Odilxon qizi**

O'zbekiston Respublikasi IIV Namangan akademik litseyi Tarix fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Tarix fani ta'limning barcha bosqichlarida o'z o'rniga ega bo'lgan mustaqil ijtimoiy fan sifatida barkamol avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ushbu maqolada milliy va xorijiy adabiyotlarni tahlil etish orqali tarixiy ta'limni qanday qilib yanada samarali tashkil qilish mumkinligini muhokama qilinadi.

**Kalit so'zlar:** samarali o'qitish, tarixni o'qitish, tarixni samarali o'qitish, tarixiy empatiya.

**Аннотация:** История как самостоятельная общественная наука, имеющая свое место на всех ступенях образования, имеет важное значение в воспитании зрелого поколения. В данной статье рассматривается, как более эффективно организовать историческое образование, анализируя отечественную и зарубежную литературу.

**Ключевые слова:** эффективное преподавание, преподавание истории, эффективное преподавание истории, историческая эмпатия.

**Abstract:** History, as an independent social science that has its place in all stages of education, is important in raising a mature generation. This article discusses how to organize historical education more effectively by analyzing national and





2023

# DEVELOPMENT AND INNOVATION

## SCIENTIFIC ONLINE JOURNAL

<https://sites.google.com/view/imxu/peecrp:1070589>

foreign literature.

**Key words:** effective teaching, history teaching, effective history teaching, historical empathy.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston tarixini xolisona o'rganish, o'zbek xalqining qadimiy va boy tarixiga haqqoniy baho berish ustuvor vazifaga aylandi. O'zbek xalqining hayoti va taqdiriga keskin burilish yasagan mustaqillik soyasida ilm-fan, xususan milliy o'zlik va ma'naviy yuksalish asosi bo'lgan tarix fani ham o'ziga xos rivojlandi. O'zbekiston tarixini xolisona yoritishda O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" asarida aytilganidek, "... jahondagi ilg'or tajribalarni chuqur o'rganish amalda joriy etishni oldimizda turgan keng ko'lamli vazifalarni amalga oshirishning muhim shartlaridan biri, deb hisoblaymiz". Ma'naviyatning ajralmas tarkibiy qismi bo'lgan tarix fani so'ngi yillarda ilk bor o'zining qonuniy vazifasini bajarishga – xalqning o'zligini anglatishga xizmat qilishga kirishdi. "Tarixiy xotira tuyg'usi to'laqonli ravishda tiklangan, xalq bosib o'tgan yo'l o'zining barcha muvaffaqiyat va zafarlari, yuqotish va qurbonlari, quvonch va iztiroblari bilan xolis va haqqoniy o'rganilgan taqdirdagina chinakam tarix bo'ladi". Tarixiy voqea, hodisalarni o'rganish, tahlil etish va yoritishda xolislik, haqqoniylik, adolatli yondashuv muhim hisoblanadi. Tarix fanini samarali tashkil etish haqida fikr yuritishdan oldin "samarali ta'lim" tushunchasini mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar fikrlarini tahlil etgan holda o'rganib chiqsak maqsadga muvofiq bo'ladi. Samarali o'qitish - bu o'qituvchilarning turli xil o'qitish uslublarini birlashtirib yoki ularni alohida qo'llash orqali talabalarda mustaqil





2023

# DEVELOPMENT AND INNOVATION

## SCIENTIFIC ONLINE JOURNAL

<https://sites.google.com/view/imxu/peecrp:1070589>

o'rganish qobiliyati, dars atmosferasini idrok etish, tushunish va va kerakli bilimlarni egallash darajasi yuqori bo'lgan ta'lim jarayoni hisoblanadi. Shuningdek, samarali o'qitish bu o'z o'lchovlari bilan baholanishi kerak bo'lgan keng tushunchadir. Shuning uchun samarali o'qitish, ta'lim sifatini oshirish uchun tashkil etilgan turli xil murakkab jarayonlar majmuasi hisoblanadi. Samarali o'qitishning ikkita asosiy xususiyati mavjud. Bular:

- Talabalarni turli xil faktlar, ko'nikmalar, qadriyatlar va tushunchalarni o'rganishlarini osonlashtirish;
- Sinfda yagona kursni emas, balki turli xil o'qitish strategiyalari, usullar va texnologiyalarni yakka yoki kombinatsiyalangan holda ishlatish qobiliyatini o'qituvchilarda shakllantirish; Yana bir qarashga ko'ra, samarali ta'limni talabalarning muvaffaqiyat darajasini oshirish uchun zarur bo'lgan asosiy o'qituvchilik malakasi sifatida tavsiflash mumkin. Bu fikrlar qurshovida aytish mumkinki, samarali ta'lim beruvchi o'qituvchi o'z kasbi va sohasini bilgan va sevgan, bilimli, g'ayratli, fidoyi, tartibli va kirishuvchan, tez va to'g'ri qarorlar qabul qilish qobiliyatiga sohib, adolatli va shu bilan birga talabalarga bilimni targ'ib qilaoluvchi va ularning tinchligi va kelajagiga qiziqadigan shaxs sifatida belgilanadi. "Ta'lim" keng ma'noda oldingi avlodlar tomonidan tashkil etilgan katta ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan tajribalarni doimiy ravishda keyingi avlodlarga yetkazishga yo'naltirilgan umumiy jarayon, tor ma'noda esa, ijtimoiy institut, jamiyatning ijtimoiy quyi tuzilmalaridan biridir. "Sifat" esa falsafiy termin sifatida ob'ekt yoki predmetning barcha muhim xususiyatlari yig'indisidir. "Ta'lim" va "sifat" tushunchalarining mohiyatini uyg'unlashtiradigan bo'lsak, ta'lim sifati, bu





2023

# DEVELOPMENT AND INNOVATION

## SCIENTIFIC ONLINE JOURNAL

<https://sites.google.com/view/imxu/peecrp:1070589>

uning xususiyatlari yaxlitligi, ta'lim oluvchi o'qishi va shaxsiy rivojlanishi uchun xizmat qiladigan eng qulay usullar birikuvidan iborat jarayondir. Ta'lim sifati - bu butun ta'lim tizimi tarkibiy qismlarining sifat vazifalari, murakkab rivojlanish kuchi(dinamika)ga ega bo'lgan jarayon bo'lib, bu ta'lim muassasalari faoliyatidagi o'zgarishlar, ya'ni ularning ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik va siyosiy muhitining o'zgarishi bilan izohlanadi. Ayni vaqtda zamonaviy ta'lim sifati innovatsion rivojlanish natijalaridan biri emas, balki uni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan shartlardan biridir. Ushbu tadqiqot sohasi bo'lgan tarix tushunchasi ilmiy soha va fan sifatida vaqt o'tishi bilan odamlar tomonidan qilingan harakatlar va faoliyatlarni o'rganish jarayoni hisoblanadi. Biroq, tarixiy jarayonda sodir bo'lgan barcha narsalarni o'rganish va ochib berish imkonsizdir. Chunki, tarixning pozitiv nuqtai nazarida aytilganidek, tarixiy ma'lumot sifatida qabul qilinishi mumkin bo'lgan har qanday da'vo dalillarga, ayniqsa yozma dalillarga asoslanishi kerak. Shuning uchun tarixni o'tmish voqealari va dalillari haqida yozilgan axborot deb ta'riflash mumkin. J. Slater bu fikrni quyidagicha ifodalaydi: "...mohiyatan tarix o'tmishni o'rganish va bizning bilimlarimiz va fikrlarimizni bir vaqtning o'zida tasdiqlash usulidir" [10, 8]. Tarix tushunchasining g'arbdagi muqobili bo'lgan "history" qadimgi yunon tiliga tegishli bo'lib, "izlanish" yoki haqiqatni tadqiq qilish ma'nosini anglatadi. Bir fan sifatida tarix insoniyat tarixini o'zining noyob metodologiyasi orqali o'rganadi. Tarixiy metodologiya, tadqiqot sohasini, muammoni yoki mavzuni aniqlash, ushbu mavzu yoki muammoga tegishli gipotezalarni ishlab chiqish, olingan dalillar va manbalardan ma'lumot to'plash, ushbu ma'lumotlarni tahlil va tanqid qilish, mavzu bo'yicha boshqa izlanishlarni





2023

# DEVELOPMENT AND INNOVATION

## SCIENTIFIC ONLINE JOURNAL

<https://sites.google.com/view/imxu/peecrp:1070589>

ko'rib chiqish va mavzuni tushunish, shuningdek mantiqiy asosda izohlangan tadqiqotni ochib berishdan iboratdir. Shunga asoslanib, tarixchining roli sifatida o'zining mustaqil ilmiy rivojlanishi jarayonida o'tmishni o'rganish, mavzuni aniq, real va to'liq tushunchalarini yoki tasvirlarini yaratish va barcha bu bosqichlar haqida fikrlash kabilar belgilanadi. An'anaviy tarix darslarini tashkil etishda talabalarga ma'lumot uzatish jarayoni odatda darslik yoki boshqa ikkilamchi tayyor manbalarini o'qish orqali amalga oshiriladi. Bu jarayon talim oluvchiga tayyor ma'lumotlarni eslab qolish va axborot sifatida qabul qilish ko'nikmasini hosil qiladi xolos. Noan'anaviy interfaol, samarali tarix darslarida esa o'tmish haqida ishonchli ta'riflar va tushuntirishlarga erishish uchun yuqorida aytib o'tilgan ko'nikmalar va tarix o'qitish metodikasidan foydalanishga urg'u beriladi. Chunki tarix darslarida va tarixni tadqiq qilishda qo'llaniladigan pedagogik va tarixiy tadqiqot usullari o'quvchilarga o'tmishni tushunishda turli xil foydali qulayliklar berishi mumkin. Manbalarni o'rganish va yozma dalillarni aniqlash, manbani yoki berilgan dalillarni tayyorlagan shaxs(lar)ning shaxsiy fikrlarini aniqlash va yozma yoki boshqa manbalarda keltirilgan fikrlarning asl ma'nosini o'rganish jarayoni tarix o'qitishning yana bir jihatlaridir. Bu tarixiy haqiqatni qanday o'rganish mumkinligini o'rgatish demakdir. Samarali tarix o'qitish o'quvchilarga tayyor tarixiy xulosa qilingan ma'lumotlar bilan birga manba va dalilarni taqdim etishni talab etadi. O'quvchi ma'lum tarixiy manbalarni (xoh yozma, xoh og'zaki bo'lsin) tahlil etgan holda tarixiy bilim va tasavvur hosil qilishi pedagogik nuqtai nazarda g'oyat samaralidir. Zotan, tarixdarslarida ta'lim oluvchining xotirasini rag'batlantiruvchi usullardan ko'ra, uning mustaqil fikrlashini ta'minlaydigan





2023

# DEVELOPMENT AND INNOVATION

## SCIENTIFIC ONLINE JOURNAL

<https://sites.google.com/view/imxu/peecrp:1070589>

usullardan foydalanish foydali hisoblanadi. Tarixiy bilimlarni tushunish va o'tmishni anglash uchun dalillarni o'rganish va ko'zdan kechirish talab etiladi. Ammo tarixni tashkil etuvchi elementlar nafaqat ular haqida balki, o'tmish voqealari, bugungi kunda ma'lum bo'lgan tajrabilar majmuasi hamdir. Ba'zi tadqiqotchilar tarixiy tafakkur jarayonlaridan foydalangan holda tarixni o'qitish amaliyotlari ko'plab tarixiy muammolar va mavzularni tushunishda muhim hissa qo'shishini ta'kidlaydilar. Bugunig zamonaviy ta'lim holati ta'lim tushunchasini qayta ko'rib chiqish va aniqlashtirishni, shaxsga yo'naltirilgan pedagogikaning toifalari va tamoyillarini tahlil qilish jarayoniga kirishni talab qiladi. Pedagogik ongning yangi modeli asta-sekin o'qituvchining ta'lim oluvchiga bevosita ta'sir etish amaliyotidan voz kechadi va ta'lim oluvchining o'z rivojlanish imkoniyatlarini ta'minlash uchun barcha pedagogik makonning tuzilishini yanada samarali tashkil etishga imkon beradi. Shunday qilib, har bir o'qituvchi o'z darslarini qiziqarli va mazmunli bo'lishga intiladi, bu esa ta'lim oluvchining mavzuga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Xususan, tarix darslarida faktlarni assimilyatsiya qilish emas, balki turli davrlarning qadriyatlarini rivojlantirish, o'tmish odamining o'rniga o'zini qo'yish, uning fikrlarini, harakatlarini tushunish qobiliyati orqali shaxsni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Bularning barchasi tarixiy empatiya yordamida amalga oshirilishi mumkin. Empatiya yunoncha - "ehtiros", "azob", "tuyg'u", boshqa odamning hozirgi hissiy holati bilan ongli hamdardlik ma'nosini bildiradi. Tarixiy empatiya esa tarixiy hodisalar va tarixiy shaxslar hayotini o'zida his etish demakdir. Tarixiy empatiyani shakllantirish usullaridan biri tarixiy hodisalarni hikoyasi hisoblanadi. Rus





2023

# DEVELOPMENT AND INNOVATION

## SCIENTIFIC ONLINE JOURNAL

<https://sites.google.com/view/imxu/peecrp:1070589>

tadqiqotchilari asarlarida hikoya usulidan darslarida samarali foydalanish haqida so'z boradi. Ular orasida P.V.Goran, A.A.Vagin, P.S.Leibengrublar alohida qayd etiladi. Hikoya orqali bolalarda empatiya shakllanishiga hissa qo'shish uchun A.A.Vagin tomonidan aytilganidrek turli xil maxsus vositalardan foydalanish talab etiladi. Tarixiy hodisalarni jonlantirish orqali tarixiy mavzu yanada ishonchli bo'lishiga erishiladi va o'rganilayotgan tarixiy hodisalarning o'ziga xosligini yaxshiroq ochib berishga imkon beradi [11,431]. Tarix darslarida badiiy adabiyot namunalaridan foydalanish ham tarixiy haqiqatni aniqlashtirishga, o'tmishning yorqin tasvirlarini yaratishga yordam beradi.

Ta'lim amaliyoti ko'rsatishicha, maktab ta'limida fanlararo aloqadorlikni yo'lga qo'yish fan va jamiyat hayotida bugungi kunda sodir bo'layotgan integratsion jarayonlarning yorqin ifodasidir. Ushbu aloqadorlik o'quvchilarning bilimlarni ongli o'zlashtirishi, dunyo haqidagi yaxlit tasavvurlarini rivojlantirish va amaliy va ilmiymetodik tayyorgarligini oshirishda muhim o'rinni egallaydi. Bunday tayyorgarlik umumiy o'rta ta'lim bitiruvchilarini darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda, ishlab chiqarishda va umuman har qanday faoliyatda o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini erkin qo'llash imkoniyatini beradi. O'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlash bo'yicha o'qituvchilar tajribalarini umumlashtirib, fanlararo aloqadorlikda tashkil etiladigan darslarni uch guruhga bo'lish mumkin:

1. Ko'rgazmalilik asosida tashkil etiladigan darsda o'rganilayotgan mavzu yuzasidan alohida topshiriqlarni bajarish uchun qo'llaniladigan o'quv fanlariaro aloqador elementlarning turli jadval va modellarda ifodalanganligi





2023

# DEVELOPMENT AND INNOVATION

## SCIENTIFIC ONLINE JOURNAL

<https://sites.google.com/view/imxu/peecrp:1070589>

asosida. Chunonchi, tarix darslarida O'zbekiston tarixi va Jahon tarixi darslarida mazmunan o'xshash bo'lgan "Osiyo mamlakatlari madaniyati", "Yevropada o'rta asr shaharlari", "Osiyo mamlakatlarning o'rta asr shaharlari" kabi mavzularni o'rganish bo'yicha.

2. Mavzularning bir-biriga o'xshashligi: o'quv jarayonining uzviy tarkibiy qismida o'quv fanlariaro aloqadorlikdan foydalanish asosida darsning samaradorligini oshirish.

3. Umumlashtirish - o'quv fanlarining umumiy qonuniyatlari va tamoyillarini mukammal o'rgatish maqsadida turli o'quv fanlari bo'yicha maxsus tashkil etiladigan takrorlash-umumlashtirish darslarida o'quvchilarning egallagan bilimlarini takrorlashga imkon yaratish. Agarda, dars jarayonida quyidagi didaktik shartlarga amal qilinsa, o'qitishga mujassam yondashishda samaradorlikka erishiladi: o'rganilayotgan o'quv fanlari bo'yicha mavzularni mazmunan uyg'unlashtirish orqali o'quv rejalariga fanlararo aloqadorlik asosida tashkil topgan dars soatlarini kiritish; o'quv fanlariaro aloqadorlik asosida tashkil etilgan darslarning ta'lim sifatini ta'minlash va uning tarbiyaviy jihatlarini kuchaytirish; darslarda mazmunan bir-biriga yaqin yoki aralash o'quv fanlari tarkibidagi tushunchalar yordamida o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashi hamda muayyan ko'nikma va malakalarini shakllantirish; O'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlashda o'quvchilar idrok etish faoliyatlarini jadallashtirishning turli vositalaridan unumli foydalanish. Chunonchi, aralash o'quv kurslari bo'yicha, muammolilik, ko'rgazmalilik, mustaqil ishlar, individual topshiriqlar tashkil etish yordamida bunday maqsadga erishish mumkin. O'quv fanlariaro aloqadorlik







2023

# DEVELOPMENT AND INNOVATION

## SCIENTIFIC ONLINE JOURNAL

<https://sites.google.com/view/imxu/peecrp:1070589>

asosida o'rganilayotgan dars materiallarini o'quvchilarga chuqurroq singdirishda boshqa dars materiallaridan foydalanish, mazkur materiallarning mazmun jihatidan o'zaro aloqador bo'lishi. Bunda, takrorlovchi, umumlashtiruvchi, yangi materialni o'rganish, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash va nazorat darslari ham bo'lishi mumkin. Fanlararo aloqadorlik o'quv jarayonining ushbu ziddiyatlarini yanada boyitadi, ular asosida yangi qarama-qarshiliklar yuzaga keladi. Bu o'quv predmetidan o'rganilayotgan bilimlarni o'zlashtirish va o'quv fanlariaro aloqadorlik asosida masalalarni yechish va boshqa turli fanlardan bilimlarni o'zlashtirishda ularni qo'llashni bilish o'rtasidagi qarama-qarshiliklardir. O'quvchilarning bilish faoliyatlari va o'quv fanining uyg'unlashtirilgan mazmuni o'rtasidagi qarama-qarshiliklar asosida muammoli vaziyat yuzaga keladi. O'quv fanlariaro aloqadorlik asosida o'tiladigan darslarga quyidagi didaktik talablar qo'yiladi:

1. Fanlararo aloqadorlik asosida o'rganilayotgan darsda yangi mavzuni o'zlashtirish uchun boshqa fanlardan olgan bilimlarni jalb etilishi hamda ularni tatbiq qilish malakalariga ega bo'lish.
2. Fanlararo aloqadorlik asosida o'rganilayotgan darsda boshqa fanlardan bilimlarni qo'llash bo'yicha o'quvchilarning bilish faoliyatlari samaradorligini ta'minlash. O'qituvchi dars o'tayotganda boshqa o'quv fanining materialini takrorlamasligi lozim. Fanlararo aloqadorlikni ta'minlashdan ko'zlangan maqsad o'quvchilarda yangi savollar va masalalarni yechishda turli fanlardan olgan bilimlarini mustaqil qo'llash ko'nikmasini hosil qilishdan iborat bo'ladi. Buning uchun dars boshida yoki yangi materialni tushuntirish jarayonida boshqa o'quv





2023

# DEVELOPMENT AND INNOVATION

SCIENTIFIC ONLINE JOURNAL

<https://sites.google.com/view/imxu/peecrp:1070589>

fanlari mazmuniga kiritilgan bilimlarni aniqlab beruvchi takrorlash suhbatlari o'tkaziladi, muammoli vaziyatlar yaratiladi, bunda bir-biriga yaqin fanlardan o'zlashtirilgan bilimlarni qo'llash talab etiladi; o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash uchun esa muntazam uy vazifalari beriladi; guruhda jamoali o'quv ishlari bilan birga yakka holda topshiriqlar (qiziqishi yuzasidan, tanlab olish, majburiy) berilishi ta'minlanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. «Ta'lim taraqqiyoti», 3-maxsus son.-T.: «Sharq», 1999 y.
2. Tarix o'qitish metodikasi . Toshkent, 2005 yil
1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – B.27.
3. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент:. Шарқ, 1998. – Б. 31
4. Тошев, С. (2020). Ўзбекистоннинг совет мустамлакачилиги даври тарихини ўрганишда турк тилидаги манбаларни ўрни. In Тарихий манбашунослик, тарихнавислик, тарих тадқиқотлари методлари ва методологиясининг долзарб масалалари (pp. 121-127).
5. E. Perrot, Effective Teaching. New York: Longman. (1982); B. Laar, R. Blatchford, D. Winkley, G. Badman, R. Howards, Effective Teaching. Oxford: National Primary Center. – P.108.

